



BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

***Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-mart***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 65-223-75-63***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 22 628 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 77 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 22 551 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 4 067,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 109,3 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 424,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 137,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 642,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 495,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 119,7 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	4 067,7	109,3
Buxoro shahri	1 198,0	114,6
Kogon shahri	118,1	103,8
<i>tumanlar:</i>		
Olot	128,9	106,9
Buxoro	298,8	102,9
Vobkent	136,4	105,5
G'ijduvon	819,8	110,9
Kogon	122,4	104,3
Qorako'l	346,6	109,4
Qorovulbozor	95,5	106,3
Peshku	142,7	102,9
Romitan	274,9	107,6
Jondor	248,4	104,6
Shofirkon	137,2	107,9


2024- yilning yanvar-mart oylarida 2023- yilning yanvar-mart oylarga nisbatan viloyatining Buxoro shahri (114,6 %), G'ijduvon (110,9 %) va Qorako'l (109,4 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-mart)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ni tashkil qildi.

2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-mart oylarida o'sish sur'ati **109,3** % ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 29,5 % bilan 1 198,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Qorovulbozor tumani 2,3 % bilan 95,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-mart oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 642,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 6,8 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,6 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 37,3 % ga ko'paydi va 424,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,4 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (99,5 %), Qorovulbozor (99,6 %) va Romitan (99,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahri (23,4 %), Peshku (27,3 %) va Kogon (57,6 %) tumanlarida kuzatildi.

10,4 %



89,6 %



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

2024- yilning yanvar-mart oylar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 986,8 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 107,5 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (4 056,7 ming. so'm), Qorovulbozor (4 800,7 ming. so'm) va G'ijduvon (2 538,0 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar tayanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-mart), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	233,7	126,3
Buxoro shahri	73,5	110,8
Kogon shahri	2,4	46,0
<i>tumanlar:</i>		
Olot	8,7	177,9
Buxoro	4,8	126,4
Vobkent	26,3	114,9
G'ijduvon	54,9	172,1
Kogon	1,3	115,0
Qorako'l	34,3	121,4
Qorovulbozor	1,9	154,0
Peshku	7,1	138,2
Romitan	6,9	122,4
Jondor	5,5	144,4
Shofirkon	6,1	124,7


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-mart)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 495,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 119,7 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 233,7 mlrd. so'mni (126,3 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 261,7 mlrd so'mni tashkil etdi (114,4 %).













2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 233,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (106,9 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>106,9 mlrd. so'm</p>  <p>45,7 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>33,9 mlrd. so'm</p>  <p>14,5 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>11,5 mlrd. so'm</p>  <p>4,9 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>11,8 mlrd. so'm</p>  <p>5,0 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>9,0 mlrd.</p>  <p>3,9 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>6,0 mlrd. so'm</p>  <p>2,6 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>2,9 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>6,4 mlrd. so'm</p>  <p>2,7 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>1,9 mlrd. so'm</p>  <p>0,9 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>4,7 mlrd. so'm</p>  <p>2,0 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>1,9 mlrd. so'm</p>  <p>0,9 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>36,8 mlrd. so'm</p> <p>15,7 %</p>

2024- yilning yanvar-mart oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 261,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 224,6 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 35,3 mlrd. so'mni, otlar – 1,2 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,6 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>140,8 mlrd. so'm</p>  <p>53,8 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>51,1 mlrd. so'm</p>  <p>19,5 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>32,7 mlrd. so'm</p>  <p>12,5 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>26,6 mlrd. so'm</p>  <p>10,2 %</p>	<p>Otlar</p> <p>1,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,5 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>8,7 mlrd. so'm</p>  <p>3,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 849 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 844 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	161,8	104,4
Buxoro shahri	83,2	103,0
Kogon shahri	3,7	102,6
<i>tumanlar:</i>		
Olota	2,7	106,0
Buxoro	7,9	120,3
Vobkent	10,0	102,7
G'ijduvon	13,5	105,0
Kogon	2,8	103,3
Qorako'l	6,8	105,1
Qorovulbozor	4,6	112,5
Peshku	3,8	101,3
Romitan	13,8	104,1
Jondor	5,4	104,3
Shofirkon	3,6	103,5

2024- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 161,8 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	960,5	133,8
Buxoro shahri	638,6	144,0
Kogon shahri	3,5	108,2
<i>tumanlar:</i>		
Olut	1,0	110,4
Buxoro	6,7	107,4
Vobkent	143,3	111,6
G'ijduvon	139,9	127,1
Kogon	2,8	107,6
Qorako'l	6,4	108,3
Qorovulbozor	1,2	109,0
Peshku	2,7	105,6
Romitan	5,0	108,4
Jondor	2,2	106,6
Shofirkon	7,2	107,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (638,6 mlrd. so'm), Vobkent (143,3 mlrd. so'm) va G'ijduvon (139,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-mart oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 960,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,8 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 681,9 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 127,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 278,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 153,2 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 240,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 16,3 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 2 105,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,8 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 65,0 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 557 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 25 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 532 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Buxoro shaharida (2,0 m.) va Vobkent tumanida (192,4 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	3 240,7	116,3
Buxoro shahri	929,3	135,7
Kogon shahri	29,2	53,7
<i>tumanlar:</i>		
Olota	17,8	95,6
Buxoro	75,7	96,6
Vobkent	792,7	194,2
G‘ijduvon	248,6	76,9
Kogon	244,2	88,3
Qorako‘l	35,9	110,6
Qorovulbozor	19,5	94,8
Peshku	215,6	95,9
Romitan	259,3	94,7
Jondor	360,0	96,0
Shofirkon	12,9	77,8